# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI VA ULARNI TURLARI

**Mahmudova Saodat**
*Jizzax Davlat Pedagogika Universeteti Maktabgacha ta'lim fakulteti*
*Maktabgacha ta'lim yo'nalishi*
**Umarjonova Muxlisa**
*3 -kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti , uning turlari , vazifasi, maqsadi, yo'nalishi hamda pedagoglarning faoliyati va vazifalari yoritib berilgan .*

Kalit so'zlar : *Maktabgacha ta'lim tashkiloti, uzviylik, shakl, jarayon, faoliyat, umumiy tipdagi, ko'p tarmoqli, ixtisoslashtirilgan, inklyuziv.*

Abstract: *This article describes the organization of preschool education, its types, mission, purpose, direction, and activities and tasks of pedagogues .*

Key words: *organization of preschool education, unity, form, process, activity, general type, multidisciplinary, specialized, inclusive.*

**Аннотация:** *В данной статье описывается организация дошкольного образования, его виды, миссия, цель, направление, а также деятельность и задачи педагогов.*

**Ключевые слова**: *организация дошкольного образования, единство, форма, процесс, деятельность, общий тип, многопрофильный, специализированный, инклюзивный.*

## KIRISH

Tashkilotlari oila va jamiyatning bolalarga g'amxo'rlik qilish, milliy hamda mintaqa xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash va rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida tashkil etiladi. Tashkilotlarda mustaqil ravishda, o'z tashabbusi bilan o'z faoliyatiga taalluqli, agar ular qonunchilikka va pedagogik prinsiplarga monelik qilmasa har qanday qaror qabul qilishga haqlidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyaviy-ta'limiy ishlar sifati, bolalar va otaonalar huquqiga jamiyat hamda Davlat manfaatlariga rioya qilish uchun mas'uldir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni bilim darajasini ko'tarish uchun avvalo pedagoglar kasb salohiyatini oshirish, ta'lim jarayoni mazmuni va sifatini takomillashtirish, ota-onalar o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini jonlantirish zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tegishli hajmda bilim, ko'nikma, malakalari hosil qilinadi. Maktabgacha talim tashkiloti turlari bu turli nuqsoni bor bolalar bilan faoliyat olib boruvchi tashkilotlar hisoblanadi. Bolalarning ko'rishi, eshitish, va aqliy qobiliyatlarida nuqsoni bor bolalar bilan talim - tarbiya jarayonini olib boradi .

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan 2 yoshdan 7 yoshgacha tarbiyalanuvchilar kontingentiga muvofiq quyidagi guruhlar tuziladi:

nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan tarbiyalanuvchilar uchun;

eshitishida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan tarbiyalanuvchilar uchun;

ko‘rishida og‘ir nuqsonlar bo‘lgan tarbiyalanuvchilar uchun;

psixik rivojlanishda kechikayotgan tarbiyalanuvchilar uchun;

aqlik zaiflik bilan tarbiyalanuvchilar uchun;

tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo‘lgan tarbiyalanuvchilar

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining to’rtta turi mavjud bolib bularga ; Umumiy tipdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti, Ko’p tarmoqli maktabgacha talim tashkiloti, Qo’shma turdagi maktabgacha talim tashkiloti va Inklyuziv turdagi maktabgacha talim tashkiloti kabilarga bo’linadi .

Umumiy tipdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida umumiy rivojlanish yo’nalishidagi guruhlarda ta’lim va tarbiyaning amalga oshirilishini taminlaydi. Bolalarga har tomonlama aqliy, axloqiy, estetik, va boshqa ta’lim tarbiyalar berib boriladi.

Ko’p tarmoqli maktabgacha talim tashkilotlarida jismoniy ruhiy , jismoniy yoki ruhiy nuqsoni bolgan bolalar uchun alohida maktabgacha talim tashkilotlari tashkil etilgan . Tayanch harakat tizmida nuqsoni bor bolalar bilan ham alohida talim tarbiya ishlari olib boriladi , ularga har bir mashg’ulot tarbiyachi tomonidan oddiydan murakkabga qarab o’rgatilib boriladi . Ruhiy nuqsoni bor bolalar bilan ishlashda xonalar tog’ri jihozlanishi kerak , bolalarga qulay sharoitda to’g’ri tarbiyalash va o’qitish ularda nafaqat to’g’ri dunyoqarashni shakillantirish balki uni yetarlicha barqaror qilish imkonini berishi kerak .

Inklyuziv turdagi maktabgach ta’lim tashkiloti bu Bolani alohida talim olishga ehtiyoji va ularni imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni sog’lom muhitga uyg’un qilib tarbiyalash, ta’lim olish uchun keng imkoniyatlar yaratib berish kerak.

Bolalarga ruhiyatini ko’taruvchi mashg’ulotlar, o’yinlar, va ta’lim olishi uchun shart - sharoitlar yaratib berish, ularning har bir faoliyatini qo’llab quvatlash va motivatsiya berib, ruhlantirib turish kerak .

Qo’shma turdagi maktabgacha talim tashkilotlarida rivojlanishida nuqsoni bolgan bolalar va rivojlanishida nuqsoni bolmagan bolalarni bitta tashkilotda lekin alohida guruhlarda o’qitishga hamda tarbiyalashga qaratilgan maktabgacha ta’lim tashkilotidir .

Har bir turdagi maktabgacha talim tashkilotlari bu bolalarni dunyoqarashini o’stirish, talim- tarbiya berish, aqliy qobiliyatini oshirish, bilim, ko’nikma, malakalar hosil qilishdan iborat . Bu turdagi ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutiladi.

XULOSA.

Maktabgacha ta'lim tizimida, Maktabgacha talim tashkiloti turlarining ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog'lom bolalar qatoriga

qo'shib sifatli ta'lim olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir.Inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

-o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi

- mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;

-dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;

-o'qishga bo'lgan ehtieji va qiziqishlari ortadi;

-O'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;

-Ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;

-Yotsirash, yakkalanish kabi xususi yatlari yo'qoladi.

Inklyuziv ta'lim sog'lom bolalar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi? -O'zlariga o'xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar; -Tengdoshlariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi;

-Ularni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish -insonparvarlik hissi tarbiyalanadi; -O'quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o'zaro hurmat tarbiyalanadi

-Yoramga muhtoj insonlarga e'tibosizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar

-Hozirda mamlakatimizda inklyuziv ta'limga yo'naltirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari kun sayin ko'payib va takomillashib bormoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi
2. “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida ” PQ-3305-son va 2018-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qarorlari.
4. A.A. Abdullayev. Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tizimi. Ilm - fan va jahon xalqaro ilmiy jurnali 2 (5), 19-21.
5. Abdullayeva, M. (2020). Bo'jak tarbiyachilarning qobiliyatini rivojlantirish asosiy omil. Zamonaviy fan va talim-tarbiya: muammo, yech, natija, 1, 112-114.
6. Abdulloh Xolmuradov "Maktabda ta’lim tizimini rivojlantirish: yangi usullar va innovatsiyalar – T. : 2021y
7. I.U.Murakayev, I.S.Saidnazarov Menejment asoslari. –T.: O‘zbekiston, 2011y.